

IV SHO‘BA. KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA TERMINOLOGIYA VA TERMINOGRAFIYA

NORMATIV-HUQUQIY MATNLARNING SEMANTIK-SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

bakhtiyormingliyev62@gmail.com

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Elova Dilrabo Quدراتillayevna

f.f.f.d.(PhD), dotsent

dilraboelova@gmail.com

ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek normativ-huquqiy matnlarining semantik va sintaktik xususiyatlari lingvo-mantiqiy ekspertiza nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda normativ matnlardagi terminologik tizim, normativ modallik, umumlashtirilgan havola konstruktsiyalari, sintaktik noaniqlik, presuppozitsiya, implikatura hamda inferensial bog‘lanishlar o‘rganiladi. Shuningdek, “yig‘im” va “davlat boji” tushunchalari misolida normativ birliklarning ichki mantiqiy qurilishi va huquqiy interpretatsiyasi tahlil qilinadi. Maqolada normativ-huquqiy matnlarni faqat leksik-semantik emas, balki pragmatik va mantiqiy jihatdan ham tadqiq etish zarurligi asoslanadi. Lingvo-mantiqiy ekspertiza yuridik diskursni tahlil qilishning integrativ metodologik modeli sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: *forensic linguistics, yurislingvistika, lingvo-mantiqiy ekspertiza, implikatura, inferensiya, presuppozitsiya, pragmatik tahlil, propositional tahlil.*

Abstract. This article discusses the semantic and syntactic features of Uzbek normative legal texts from the perspective of linguistic-logical expertise. The study analyzes legal terminology, normative modality, generalized reference constructions, syntactic ambiguity, presupposition, implicature, and inferential

relations in legal discourse. The concepts of “fee” and “state duty” are examined as examples of how legal meaning is shaped not only by lexical definition, but also by the internal structure and functional role of legal norms. The article emphasizes that the interpretation of normative legal texts requires not only linguistic analysis, but also pragmatic and logical approaches. In this regard, linguistic-logical expertise is considered as an integrative method for analyzing legal discourse.

Keywords: *forensic linguistics, legal linguistics, linguistic-logical expertise, implicature, inference, presupposition, pragmatic analysis, propositional analysis.*

Kirish. Normativ-huquqiy matn yuridik diskursning markaziy qatlamini tashkil etadi. Qonun, kodeks, farmon, qaror va nizomlar oddiy axborot matni emas, balki huquqiy xatti-harakatni belgilovchi, majburiyat, ruxsat, taqiq va javobgarlikni til vositasida normallashtiruvchi maxsus diskursiv tuzilmadir. Shu sababli bunday matnlarni faqat leksik-semantik tahlil qilish yetarli emas. Ularning sintaktik qurilishi, modal kuchi, havola tizimi, implikatura, presuppozitsiya, inferensial bog‘lanish va argumentativ strukturasini ham tahlil qilish zarur.

An‘anaviy lingvistik ekspertiza ko‘pincha matndagi so‘z ma‘nosi, grammatik shakl va uslubiy birliklarni aniqlash bilan chegaralanadi. Biroq yuridik matn amaliyotida nizo aksariyat hollarda alohida so‘zning lug‘aviy ma‘nosidan emas, balki norma ichidagi yashirin mantiqiy munosabat, havola chegarasi, shart-oqibat aloqasi yoki sintaktik noaniqlikdan kelib chiqadi. Demak, normativ-huquqiy matnni tahlil qilishda lingvo-mantiqiy ekspertiza alohida metodologik bosqich sifatida zarur bo‘ladi.

Metodologik asos. Maqolada normativ-huquqiy matnlarga sud lingvistikasi (forensic linguistics) va yurislingvistika doirasida yondashildi. Asosiy e‘tibor o‘zbek qonunchilik matnlarining semantik-sintaktik qurilishi, modal markerlar, anaforik havolalar, ko‘p bosqichli egalik zanjirlari, nominal va passiv

konstruktsiyalar, shartli gaplar hamda umumlashtirilgan havola konstruktsiyasilar (blanket havolalar)ga qaratildi.

P. Tiersma huquqiy tilni maxsus terminologiya va institutsional aniqlik bilan bog'laydi [5:34–36]. D. Mellinkoff esa huquqiy tilning murakkab sintaktik tuzilishi, takroriy formulalari va talqin imkoniyatlarini uning asosiy belgilaridan biri sifatida ko'rsatadi [3:24–31]. V.K. Bhatia huquqiy matnlarni professional janr sifatida tahlil qilib, ularning kommunikativ maqsadi bilan lingvistik shakli o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi [1:101–107]. Ushbu qarashlar o'zbek normativ-huquqiy matnlarini tahlil qilish uchun nazariy tayanch beradi.

Natijalar va tahlil. O'zbek normativ-huquqiy matnlarida semantik murakkablik, avvalo, terminologik tizimda namoyon bo'ladi. Huquqiy termin bir qarashda aniq va bir ma'noli bo'lishi kerak. Ammo amaliy matnlarda terminologik sinonimiya, polisemiya va lakunalik holatlari uchraydi. Masalan, “*shaxs*” termini jinoyat-huquqiy kontekstda jinoyat subyekti sifatida, fuqarolik-huquqiy kontekstda esa jismoniy va yuridik shaxslarni qamrab oluvchi umumiy tushuncha sifatida ishlatiladi. Bu holat matnning so'zma-so'z ma'no darajasi (literal meaning) bilan huquqiy-konseptual ma'nosi o'rtasida farq yuzaga keltiradi.

Normativ matnlarning sintaktik qurilishi ko'p qatlamli va murakkab xarakterga ega. Shart ergash gaplar, sifatdosh, ravishdosh o'ramli sintaktik birliklar, harakat nomli tizimlar, majhul nisbat shakllari hamda zanjirsimon egalik munosabatlari normativ mazmunning zich semantik shaklda ifodalanishiga olib keladi. Masalan, “*belgilangan tartibda*”, “*qonun hujjatlariga muvofiq*”, “*tegishli organ tomonidan*” kabi birliklar huquqiy matnning rasmiyligini kuchaytiradi, biroq ayni paytda referensial noaniqlikni ham yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, blanket havolalar lingvo-mantiqiy ekspertiza uchun muhim obyekt hisoblanadi, chunki ular normaning mazmunini matn ichida emas, boshqa hujjatlar tizimida izlashni talab qiladi.

O'zbek huquqiy matnlarida normativ modallik (deontic modality) alohida ahamiyatga ega. “*Shart*”, “*majbur*”, “*lozim*”, “*mumkin*”, “*taqiqlanadi*”, “*huquqiga ega*” kabi birliklar normaning majburiylik, ruxsat yoki taqiq darajasini belgilaydi. Biroq modal birliklarning kuchi har doim bir xil emas. “*Taqiqlanadi*” eng qat’iy modal kuchga ega bo’lsa, “*maqsadga muvofiq*” tavsiyaviy xarakter kasb etadi. Lingvo-mantiqiy ekspertiza aynan shu farqlarni aniqlashi lozim.

Normativ-huquqiy matnlarning lingvo-mantiqiy tahlili shuni ko’rsatadiki, tashqi jihatdan bir xil semantik maydonga mansub ko’rinadigan ayrim huquqiy terminlar ichki normativ mazmuni, funksional vazifasi va mantiqiy qurilishi jihatidan sezilarli farqlanadi. Bu holat, ayniqsa, O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidagi “*yig’im*” hamda “*davlat boji*” tushunchalari misolida yaqqol namoyon bo’ladi. Lex.uz milliy qonunchilik bazasida joylashtirilgan normativ hujjatlar tahlili ushbu terminlarning faqat lug’aviy ma’nosi emas, balki ularning huquqiy vazifasi ham turlicha ekanligini ko’rsatadi.

Tahlil mezonlari	Yig’im	Davlat boji
Normativ vazifasi	Huquq olish sharti	Amalga oshirilgan harakat uchun to’lov
Semantik yo’nalishi	Prospektiv	Retrospektiv
Asosiy konstruktsiya	“shartlaridan biri”	“amalga oshirganlik uchun”
Huquqiy mexanizm	Ruxsat beruvchi	Kompensator
Inferensial model	To’lov → huquq	Harakat → to’lov
Pragmatik funksiyasi	Ruxsatga yo’naltirish	Protsessual xarajatni qoplash

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 16-moddasida yig’im “*yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri*” sifatida izohlanadi. Ushbu normada asosiy semantik yuk “*shartlaridan biri*” birikmasiga tushmoqda. Chunki yig’im mazkur normada allaqachon bajarilgan harakat uchun emas, balki keyinchalik amalga oshiriladigan yuridik harakatning zarur sharti sifatida qo’llanmoqda. Demak, norma mazmunida “*to’lov → huquq yoki ruxsat*”

munosabati shakllanadi. Shu jihatdan yig'im muayyan faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi ruxsat mexanizmi bilan bog'lanadi.

“Davlat boji to'g'risida”gi qonunning 3-moddasida esa davlat boji *“yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to'lov”* sifatida ifodalangan. Bu yerda norma mazmuni boshqa tamoyil asosida qurilgan. To'lov hali amalga oshirilmagan harakatning sharti sifatida emas, balki vakolatli organ tomonidan bajarilgan yuridik harakat bilan bog'liq holda qo'llanmoqda. Shuning uchun mazkur konstruktsiyada **“yuridik harakat → majburiy to'lov”** munosabati yuzaga keladi. Shu sababli davlat boji ko'proq protsessual faoliyat bilan bog'liq xarajatni qoplovchi normativ mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvo-mantiqiy nuqtai nazardan ushbu farq muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki *“yig'im”* tushunchasida hali amalga oshirilmagan yuridik harakat nazarda tutiladi, *“davlat boji”*da esa bajarilgan protsessual faoliyat asosiy mazmun markazini tashkil etadi. Natijada bu ikki termin bir xil *“majburiy to'lov”* guruhiga mansub bo'lsa-da, ularning normativ vazifasi va ichki mantiqiy qurilishi bir xil emas.

Qonunchilik texnikasi nuqtai nazaridan yana bir muhim jihat kuzatiladi. *“Davlat boji turlari”* ro'yxatida *“konsullik yig'imi”* kabi birliklarning qo'llanishi terminologik jihatdan muayyan nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi. Chunki konseptual jihatdan *“yig'im”* va *“boj”* turli huquqiy mexanizmlarni anglatlsa-da, amaliy qonunchilikda ular ayrim hollarda yagona normativ tizim doirasida umumlashtiriladi. Bu esa huquqiy terminlarning shakllanishida faqat semantik omil emas, balki tarixiy va amaliy omillar ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Mazkur farq real huquqiy munosabatlarda ham aniq namoyon bo'ladi. Masalan, xususiy tibbiyot muassasasini tashkil etishda tadbirkor avvalo yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazgani uchun davlat bojini to'laydi. Chunki bu yerda

davlat organi tomonidan protsessual harakat amalga oshirilmoqda. Biroq tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritish uchun litsenziya yig'imi undiriladi. Sababi bu to'lov muayyan faoliyat turiga ruxsat berish sharti sifatida qo'llanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, normativ-huquqiy matnlardagi ayrim terminlarning haqiqiy mazmuni faqat yuzaki leksik ma'no orqali emas, balki ularning normativ vazifasi, matn ichidagi bog'lanishi va yashirin mantiqiy munosabatlari orqali ochiladi. Shu sababli bunday birliklarni tahlil qilishda oddiy leksik-semantik yondashuv yetarli bo'lmaydi. Lingvo-mantiqiy ekspertiza esa normativ matnning semantik, pragmatik va mantiqiy qatlamlarini birgalikda tahlil qilish orqali huquqiy mazmunning chuqurroq mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Yana bir muhim masala presuppozitsiya va implikaturadir. Normativ matnda ko'pincha ayrim ma'nolar ochiq aytilmaydi, biroq norma tuzilishidan kelib chiqib anglashiladi. Masalan, “*soliq to'lovchi hisobot taqdim etadi*” shaklidagi gap grammatik jihatdan indikativ bo'lsa-da, huquqiy kontekstda majburiyat ma'nosini bildiradi. Bu yerda nutq akti oddiy axborot berish vazifasini emas, balki buyruq-yo'naltiruvchi funksiyani bajaradi. Demak, pragmatik tahlil huquqiy normaning real kommunikativ kuchini aniqlashda zarurdir.


Normativ-huquqiy matnlarda propositsional tahlil ham muhim o'rin tutadi. Har bir norma kamida uch tarkibiy qismga ega: *subyekt, shart* va *oqibat*. Masalan, “*agar soliq to'lovchi belgilangan muddatda hisobotni taqdim etmasa, javobgarlikka tortiladi*” tipidagi tuzilmalarda shart va oqibat o'rtasidagi inferensial aloqa aniq ko'rsatiladi. Ammo matn murakkablashgan sari qaysi shart qaysi oqibatga tegishli ekani noaniqlashadi. Bunday holatda oddiy grammatik tahlil yetarli bo'lmaydi. Mantiqiy rekonstruksiya talab qilinadi.

Jinoyat kodeksining tuhmat va haqoratga oid normalari ham lingvo-mantiqiy ekspertiza zaruratini ko'rsatadi. “*Yolg'on ma'lumot*”, “*sha'n va qadr-qimmatni kamsitish*”, “*ataylab tarqatish*” kabi birliklar faqat leksik ma'no bilan emas, balki presuppozitsiya, niyat, kommunikativ vaziyat va diskursiv manipulyatsiya bilan bog'liq holda tahlil qilinishi kerak. Ayniqsa, yashirin ayblovl holatlarida matn yuzasida bevosita haqorat yoki tuhmat ko'rinmasligi mumkin, biroq inferensial model orqali salbiy baho, ayblovl yoki ijtimoiy obro'sizlantirish aniqlanadi.

Muhokama. Normativ-huquqiy matnlarning semantik-sintaktik murakkabligi lingvo-mantiqiy ekspertizani mustaqil metodologik bosqich sifatida shakllantirishni talab qiladi. Bu yondashuv an'anaviy lingvistik ekspertizadan farqli ravishda matnni faqat til birliklari yig'indisi sifatida emas, balki normativ, pragmatik va mantiqiy tuzilma sifatida o'rganadi.

Lingvo-mantiqiy ekspertiza quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- *lingvistik identifikatsiya* - terminlar, sintaktik birliklar, modal markerlar va havolalarni aniqlash;
- *pragmatik tahlil* - nutq akti, implikatura, presuppozitsiya va kommunikativ maqsadni belgilash;
- *propositsional va inferensial tahlil* - shart, oqibat, istisno va argumentativ strukturani rekonstruksiya qilish;
- *integrativ interpretatsiya* - lingvistik va mantiqiy natijalarni huquqiy kontekst bilan bog'lash.



Ushbu yondashuv huquqiy matnlarda uchraydigan sintaktik noaniqliklar, havola tizimidagi referensial mavhumlik, diskursiv manipulyatsiya va implitsit ayblov strukturalarini aniqlashda muhim metodologik imkoniyat yaratadi.

Xulosa. O‘zbek normativ-huquqiy matnlari murakkab semantik-sintaktik tuzilishga ega. Ularda terminologik qatlamlilik, modal markerlar, blanket havolalar, shartli konstruktsiyalar, ko‘p bosqichli egalik zanjirlari va pragmatik implikaturalar faol ishlaydi. Shu sababli bunday matnlarni tahlil qilishda faqat leksik yoki grammatik yondashuv yetarli emas.

Lingvo-mantiqiy ekspertiza normativ-huquqiy matnni til, mantiq va huquq kesishmasida o‘rganadigan yangi metodologik paradigma sifatida maydonga chiqadi. Uning ilmiy ahamiyati matndagi ochiq ma’no bilan birga yashirin inferensial tuzilmalarni ham aniqlashga qaratilganligi bilan dolzarblik isodalaydi. Amaliy ahamiyati esa huquqiy talqin, sud-lingvistik ekspertiza va normativ hujjatlar sifatini baholashda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. London: Longman, 1993.



2. Golev N.D. Yuridicheskaya lingvistika: problematika i perspektivy. Barnaul, 1999.
3. Mellinkoff D. The Language of the Law. Boston: Little, Brown and Company, 1963.
4. Solan L., Tiersma P. The Oxford Handbook of Language and Law. Oxford: Oxford University Press, 2012.
5. Tiersma P. Legal Language. Chicago: University of Chicago Press, 1999.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/4674902> (Murojaat sanasi: 20.02.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – 2020. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/4674902> (Murojaat sanasi: 20.02.2026).
8. O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni. – Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/4674902> (Murojaat sanasi: 20.02.2026).